

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA EMOTSIONAL HOLATLARNI IFODALASHNING LINGUOMADANIY VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Kurbanova Komila Abdullo qizi

Uzbekistan State World Languages University Tashkent, Uchtepa district,

Street Kichik halqa yo'li, 21A Email:abdkomka@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15876946>

Annotatsiya

Ushbu maqola nutq jarayonida emotsional birliklarni ingliz va o'zbek tillarida ishlatilish holatlaridagi umumiy va farqli jihatlarni tadqiq etadi. Izlanishlar davomida emotsional holatlarni u tildan bu tilga solishtirib tarjima qilganda yuzaga keladigan lingvistik, madaniy va pragmatik qiyinchiliklarni badiiy adabiyotdagi misollar hamda frazeologik birliklar yordamida tahlil qiladi. E'tiborlisi shuki, bugungi kunga qadar, his-tuyg'u bilan bog'liq kontekstlarda tilning pragmatik va madaniyatga oid xususiyatlari to'liq o'rganilmagan soha bo'lib qolmoqda. Maqolaning maqsadi bu sohadagi nazariyalarni umumiyalashtirib, ma'lum bir yondashuvga asosan yuqoridagi xususiyatlarni ikki til o'rtasida tahlil etish.

Kalit so'zlar: emotsional holat, linguomadaniyat, pragmatika, yuz ifodalar, verbal, nonverbal muloqot, hissiy bo'yoqdorlik, his-tuyg'u, frazeologik iboralar.

Kirish

Har qanday madaniyat va tilda verbal muloqot amalga oshirilar ekan, so'zlovchilar suhbatni yana-da hissiy boyitish, emotsional tus berish maqsadida nonverbal muloqot shakllaridan ham bevosita foydalanishadi. Bu har bir til uchun milliy an'ana va tushunchalaridan, madaniyat normalaridan kelib chiqqan holda farqli jihatlarga ega bo'lishi mumkin. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro suhbat hissiy bo'yoqdor bo'lishida ovoznining toni, yuz ifodalari, tana tili muhim omillar sifatida xizmat qiladi. Suhbat jarayoni izchilligi va shiddati, monoton yoki qizg'in kechishi, albatta, so'zlovchilarning emotsional holati va u orqali bergan javob reaksiyalariga tom ma'noda bog'liq bo'ladi.

Jumladan, ingliz va o'zbek tillarida ham emotsional holatlarni ifodalashda yo'nalganlik (directionality) dagi xilma-xillikdan, madaniy qadriyatlardan, maxsus olmoshlardan, emotsional so'zlardan, badiiy vositalar kabi o'ziga xos lingvomadaniy va pragmatik elementlardan foydalaniladi.

Xorijiy izlanishlarga va adabiyotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, jahon tilshunosligida ushbu mavzu bo'yicha ko'plab tilshunoslar tadqiqot olib brogan: ingliz tilida Elliott (1971, 1974), Grimshov (1979) va Rhett (2008); nemis tilida Fries (1988) va Brandner (2010); fransuz tilida Mandarin (2008); italyan tilida esa Portner va Zanuttini (2003) va boshqalar. Ushbu olimlarning izlanishlari dunyo miqyosida "emotsional nutq" mavzusini o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.¹ emotsional holatlarni ifoda etishda til va madaniyatning ahamiyati to'grisida A.Fulen, Belinda Maia va Diano Santos, Danuta Vishniyevska kabilar fikr yuritgan.

Bugunga qadar, bu mavzu doirasida izlanish olib borgan tilshunoslar soni mamlakatimizda ko'pchilikni tashkil etmasa-da, bir qator yosh izlanuvchilar va tilshunoslar bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borgan e'tiborga loyiq. Bular orasida Ashurova M, Islomova L, Muxammadiyev A, Kaharova I kabilar bor.

¹ Abdullaeva X (2022). Specific features of emotional sentences in English and Uzbek languages. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10 (12), p: 1778

His-tuyg'ular xilma-xil bo'lgani kabi ularni ifoda etish ham individual, madaniy, kontekst jihatdan tubdan farq qiladi. Bu shuni anglatadiki, har bir so'zlovchida emotsional talqin o'ziga xos bo'lishidan tashqari, suhbatdagi his-tuyg'ular namoyishi ham kontekst, turli xil madaniyat va mentalitetga xos bo'lgan unsurlarga ko'ra tinglovchilarga turlicha yetkazib beriladi. Bu ilmiy ishda ikkala tildagi mavjud asarlardan misollarni qamrab olganligi bois qiyoslash metodidan samarali foydalanilgan. Shuningdek, ingliz va o'zbek adabiyotlaridagi dialoglardan parchalar, frazeologik iboralar va his-tuyg'uni bildiruvchi lingvistik til birliklari qiyoslab tahlil qilingan.

Asosiy qism

Ingliz va o'zbek tillaridagi pragmatik xususiyatlarni tahlil qilish uchun 'sevgi' va 'muhabbat' tushunchalarini olaylik. Ingliz tilida, odatda muhabbat bilan bog'liq emotsional holatlar til so'zlovchilari tomonidan biroz to'g'ridan-to'g'ri va ochiqroq tarzda ifoda etilsa, aksincha, o'zbek tilida esa bu yashirinroq tarzda saqlanib, to'g'ridan-to'g'ri ifoda etilmaydi, madaniyatimizga xos bo'lgan kamtarlik va iboni saqlagan holda namoyon etiladi.² Bundan kelib chiqadiki, fikrlarni va his-tuyg'uga oid jummalarni to'g'ridan-to'g'ri va aksincha ifoda etilishi bu ikkala tildagi pragmatikaga xos bo'lgan farqli jihatning yaqqol misoli desak bo'ladi.

Lingvistik va madaniyatga oid xususiyatlar haqida so'z borar ekan, ikkala tildagi farqli jihatlarga ahamiyat berib o'tish joiz. Ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda, his-tuyg'ularni nisbatan ochiqroq ifoda etish yondashuvi ko'proq ko'zga tashlanadi. Bu holat mazkur madaniyatdagi ochiqlik va individuallik tushunchalari bilan tavsiflanadi, desak xato bo'lmaydi. O'zbek madaniyatida esa urg'u ko'proq ijtimoiylik va xushmuomalalik tamoyillariga berilishi va shunga asoslanib nutqiy jarayonlar amalga oshirilishi sir emas.³ Madaniyatimizda suhbatdosh ko'ngliga ozor berish, haqoratli so'zlar ishlatib qo'yishdan yiroq bo'lish va andisha kabi madaniyatimizga xos bo'lgan qadriyatlar ustuvor hisoblangani uchun ham suhbat birdan maqsadga ko'chishi va emotsional holatlar bimalol ifoda etilishi kam uchraydi.

Umumiy jihatdan olib qaralganda, emotsional birliklar quyidagi ma'nolarni ifoda etishi mumkin: zavq va qoniqish, qo'rquv, og'riq, achinish, jahl, hayrat, kulgu, tasdiq va inkor, ishonchsizlik, ikkilanish, eslatma, ko'ngli to'qligi, xafagarchilik, xohlamaslik, ogohlantirish, g'azab, nafrat, jirkanish, mag'rurlik, faxr, rad etish va ajratishlik.⁴ His-tuyg'ularning turfa xil bo'lishining o'zi madaniyatlar va tillararo nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi, shuning uchun ham tarjima sohasida tarjimonlardan kontekst, madaniyat va pragmatik jihatlarga alohida e'tibor berish talab etiladi. Jeyn Oustinning "Andisha va g'urur" asaridan olingan misollarda emotsional holatlarni ifodalashda foydalanilgan so'z, tovush va ohanglar pragmatik jihatdan qanday ma'no berishini ko'rib chiqamiz.

Tasdiq: "Oh, Mr Darcy, will you walk with us? Miss Bingley asked. "The exercise is so pleasant!" [4, 17]

Inkor: "Oh, Mr Darcy, you mustn't say such things!" said Miss Bingley. [4, 17]

² Mardiyev T.K (2019) Etymological and semantical features of the feeling of love in the English and Uzbek languages. ISJ Theoretical& Applied science, 11 (79), 144-148

³ Mardiyev T.K (2019) Etymological and semantical features of the feeling of love in the English and Uzbek languages. ISJ Theoretical& Applied science, 11 (79), 144-148

⁴ Kaharova I.S (2019) The role and meaning of emotional words in the formation of expressions in English and Uzbek languages. International Journal of Linguistics, Literature and Translation, 2 (5), 12-19

Rad etish: "Don't talk about Mr Collins to me!" Mrs Bennet cried. "I refuse to let him visit us!" [4, 20]

G'azab: "So this is your opinion of me!" he cried. "Thank you for telling me my faults" [4, 49]⁵

Mashhur "Garri Potter" asaridagi jumalarning tahlili bilan tanishamiz:

Hayrat: "Oh, are you a Perfect, Percy?" said one of the twins, with an air of great surprise. [2, 72]

Qo'rquv: "Don't leave me!" said Neville, scrambling to his feet. [2, 116]

Zavq: "Oh, well done!" cried Professor Flitwick, clapping. [2, 127]

Jirkanish: "Weird!" he said. "What a shape! This is money?" [2, 147]⁶

Ingliz va o'zbek tillarida obrazli ifodalar orqali his-tuyg'ularni yorqin va ijodiy tarzda ifodalash keng tarqalgan. Metafralar, qiyoslashlar va frazeologik iboralar hissiy kechinmalarni yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, ingliz tilida "*waliking on air*" (ya'ni nihoyatda baxtli bo'lish) yoki "*feeling blue*" (ya'ni xafa bo'lish) kabi iboralar kuchli tasviriy va emotsional obrazlar yarata oladi. Xuddi shuningdek, o'zbek tilida ham ko'p hollarda madaniy timsollar, xalq og'zaki ijodi va qadriyatlarga asoslangan obrazli iboralar yordamida his-tuyg'ular nozik ifodalanadi. Ushbu obrazli vositalarni o'rganish har bir til doirasida hissiyotlarning qanday tushunilishi va ifodalanilishini chuqurroq anglash imkonini beradi.⁷ Mahoratli tarjimonlar mazkur obrazli ifodalarni puxta o'rganmog'i va doimiy izlanishda bo'lmog'i maqsadga muvofiq.

Xulosa

Insonlarning ichki dunyosi va kechinmalarini ifodalashining asosiy vositalaridan biri hisoblanadigan emotsiyalar til tizimida muhim o'rin egallaydi. Til tarkibida emotsiyani chuqurroq tahlil qilganimizda, har bir til turli his-tuyg'ularni ifodalash uchun o'ziga xos so'zlar, iboralar va grammatik tuzilmalarga ega ekanini ko'rish mumkin. Til tizimida uchraydigan bunday emotsional ifodalar tilning boyligi va madaniyatning tilga ta'sirini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ba'zi tillarda quvonch, shodlik, zavq, hayajon kabi emotsiyalarni ifodalash uchun bir nechta atamalar mavjud bo'lsa, boshqa bir tilda ushbu holatlarning barchasini ifodalash uchun yagona so'z ishlatilishi mumkin. Xuddi shuningdek, ma'lum bir emotsiyaning kuchi yoki ohangi bir tildan ikkinchisiga tarjima qilinayotganda o'zgarishi mumkin. Emotsional ifodalarni tarjima qilish jarayoni nozik va murakkab bo'lishi mumkin, chunki bir tilda mavjud bo'lgan aniq emotsional ma'noni boshqa tilda to'liq ifoda etish imkonsiz bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda tarjimon nafaqat grammatik va lug'aviy bilimni o'zlashtirishi, balki madaniyat va kontekstdan kelib chiqqan holda tushuna talqin etish ko'nikmasiga ham ega bo'lishi lozim.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

⁵ Jane Austen (2005) *Pride and Prejudice*. Retold by Margaret Turner. Macmillan p: 96

⁶ Rowling J.K (2004) *Harry potter and the Philosopher's stone*. Bloomsbury, p: 225

⁷ Xoldorova X.U (2024) Ingliz va o'zbek tillarida so'zlashuvchilarning his-tuyg'ularini ifodalashning lingva pragmatik xususiyatlari. Ko'p tillilik muhitida xorijiy tillarni rivojlantirishning innovatsion va integrativ muammolari, 539-542

1. Abdullaeva X (2022). Specific features of emotional sentences in English and Uzbek languages. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10 (12), p: 1778.
2. Jane Austen (2005) Pride and Prejudice. Retold by Margaret Turner. Macmillan p: 96.
3. Kaharova I.S (2019) The role and meaning of emotional words in the formation of expressions in English and Uzbek languages. International Journal of Linguistics, Literature and Translation, 2 (5), 12-19.
4. Mardiyev T.K (2019) Etymological and semantical features of the feeling of love in the English and Uzbek languages. ISJ Theoretical& Applied science, 11 (79), 144-148.
5. Mardiyev T.K (2019) Etymological and semantical features of the feeling of love in the English and Uzbek languages. ISJ Theoretical& Applied science, 11 (79), 144-148.
6. Rowling J.K (2005) Harry potter and the Philosopher's stone. Bloomsbury, p: 225.
7. Xoldorova X.U (2024) Ingliz va o'zbek tillarida so'zlashuvchilarning his-tuyg'ularini ifodalashning lingva pragmatik xususiyatlari. Ko'p tillilik muhitida xorijiy tillarni rivojlantirishning innovatsion va integrativ muammolari, 539-542.